

## HUQUQIY ISLOHOTLARDA AKADEMIK TADDIQOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ULARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH YO‘LLARI

Habibullayev Sayfiddin Saydullo o‘g‘li  
Namangan davlat universiteti  
Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: y.f.d.(PhD) Atamirzayev Ibrohim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18943803>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada huquqiy islohotlar jarayonida akademik tadqiqotlarning o‘rni, ularning samaradorligini oshirish omillari hamda ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish yo‘llari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** huquqiy islohotlar, akademik tadqiqotlar, ilmiy natijalar, qonunchilik, huquqiy amaliyot, ilmiy ekspertiza, huquqiy siyosat, islohotlar samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль академических исследований в правовых реформах, а также вопросы повышения их эффективности и внедрения научных результатов в практику.

**Ключевые слова:** правовые реформы, академические исследования, научные результаты, законодательство, правоприменительная практика, правовая политика, научная экспертиза.

**Annotation:** This article analyzes the role of academic research in legal reforms, the issues of increasing their effectiveness, and ways to implement scientific results into legal practice.

**Keywords:** legal reforms, academic research, scientific results, legal practice, legislation improvement, legal policy, scientific expertise.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvining samaradorligi ko‘p jihatdan huquqiy tizimning qay darajada mukammal ishlashiga bog‘liq. Huquqiy tizimning barqaror va adolatli faoliyat yuritishi esa o‘z navbatida izchil, ilmiy asoslangan huquqiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Zamonaviy sharoitda huquqiy islohotlar faqat yangi qonunlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularni chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan akademik tadqiqotlar huquqiy islohotlarning muhim nazariy asosini tashkil etadi.

Huquqiy sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash hamda yangi huquqiy institutlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy izlanishlar orqali mavjud normativ-huquqiy hujjatlarning kamchiliklari aniqlanadi, huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar o‘rganiladi va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va uni milliy huquqiy tizimga moslashtirishda ham akademik tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi.

Ko‘plab rivojlangan davlatlarda huquqiy islohotlar avvalo ilmiy asosda amalga oshiriladi. Masalan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda qonun loyihalari ishlab chiqilishidan oldin ular ilmiy muassasalar tomonidan chuqur tahlil qilinadi. Ilmiy ekspertiza natijalari qonunchilik jarayonida muhim manba sifatida qo‘llaniladi. Bu esa qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirishga, ularning amaliyotda samarali ishlashini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Huquqiy islohotlarda akademik tadqiqotlarning samaradorligi bir necha omillarga bog‘liq. Avvalo, ilmiy tadqiqotlar amaliy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Agar ilmiy ishlar faqat nazariy xarakterga ega bo‘lib, amaliyot bilan uzviy bog‘lanmasa, ularning huquqiy islohotlarga qo‘shadigan hissiy cheklangan bo‘lib qoladi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlar real huquqiy muammolarni aniqlash, ularning sabablarini o‘rganish va aniq yechimlar taklif qilishga yo‘naltirilishi zarur.

Bundan tashqari, davlat organlari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotchi yuristlar va olimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar huquqiy islohotlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Davlat organlari tomonidan ilmiy muassasalarga aniq mavzular bo‘yicha buyurtmalar berilishi, qonun loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy xulosalardan foydalanilishi, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar tashkil etilishi bu borada ijobiy natijalar berishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Sud amaliyoti, statistik ma‘lumotlar, huquqni qo‘llash

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

natijalari haqidagi ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ilmiy tadqiqotlarning aniqligi va asoslanganligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, muammoli sohalarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish imkoniyati kengaymoqda.

Ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish masalasi huquqiy islohotlarning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ko‘pincha ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga to‘liq joriy etilmaydi yoki ularning samarasi yetarli darajada sezilmaydi. Buning asosiy sabablari sifatida ilmiy tavsiyalarning majburiy kuchga ega emasligi, davlat organlari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi hamda ilmiy ishlanmalarni joriy etish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko‘rsatish mumkin.

Ilmiy natijalarni amaliyotga samarali joriy etish uchun qonun loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy xulosalardan majburiy foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, yangi huquqiy institutlarni to‘liq joriy etishdan oldin ularni ayrim hududlarda sinov tariqasida qo‘llash, natijalarni tahlil qilish va shundan so‘ng keng miqyosda joriy etish ham samarali usullardan biri hisoblanadi.

Davlat organlari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ilmiy tavsiyalarni amaliyotga tezroq joriy etish mumkin. Qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalar, seminarlar, konferensiyalar va tajriba almashish dasturlari bu borada muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ilmiy tavsiyalarni joriy etgan davlat organlari va tashkilotlarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy islohotlar samaradorligini ta‘minlashda akademik tadqiqotlarning o‘rni beqiyosdir<sup>1</sup>. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini modernizatsiya qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab rivojlangan davlatlarda huquqiy islohotlar jarayoni bevosita ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, mustaqil ekspert markazlari hamda tahliliy markazlar faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda olib boriladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, akademik tadqiqotlarni amaliyotga samarali joriy etish uchun davlat, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik tizimi shakllantirilishi zarur.

AQSh tajribasida huquqiy islohotlar ko‘pincha mustaqil ilmiy-tahliliy markazlar, ya‘ni “think tank”lar faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Masalan, Brookings Institution, Heritage Foundation, RAND Corporation kabi markazlar qonunchilik tashabbuslari, sud-huquq tizimi, jinoyatchilikka qarshi kurash va inson huquqlarini himoya qilish sohalarida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ushbu markazlar tomonidan tayyorlangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar AQSh Kongressi, federal sudlar va ijroiya hokimiyati organlari tomonidan amaliy qarorlar qabul qilishda faol qo‘llaniladi. Ayniqsa, jinoyat siyosati, sud-huquq tizimini isloh qilish va politsiya faoliyatini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan dasturlar ijobiy natijalar bergani e‘tirof etiladi. Bu tajriba akademik tadqiqotlarni siyosiy qarorlar bilan integratsiyalashning muhim modelini namoyon etadi.

Buyuk Britaniyada huquqiy islohotlar jarayonida “Law Commission” instituti muhim rol o‘ynaydi. Ushbu komissiya mustaqil ilmiy-huquqiy organ sifatida faoliyat yuritib, amaldagi qonunlarni tahlil qiladi, ularning samaradorligini baholaydi hamda yangi qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqadi. Komissiya tomonidan tayyorlangan ilmiy asoslangan qonun loyihalari odatda parlament tomonidan qabul qilinadi. Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qonun loyihalarining ilmiy ekspertizadan o‘tkazilishiga bog‘liq. Mazkur tizimda universitetlar, ilmiy markazlar va advokatlik tashkilotlari ham faol ishtirok etadi. Germaniya huquqiy tizimida esa akademik tadqiqotlar qonunchilik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Germaniya Federal Adliya vazirligi huzurida faoliyat yurituvchi ilmiy kengashlar, shuningdek, Maks Plank nomidagi institutlar, yirik universitetlarning huquq fakultetlari qonun loyihalarini ishlab chiqishda va ekspertizadan o‘tkazishda faol qatnashadi. Germaniya tajribasining o‘ziga xos jihati shundaki, deyarli har bir yirik qonunchilik tashabbusi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar, statistik tahlillar va amaliy tajribani o‘rganish asosida ishlab chiqiladi. Bu esa qonunlarning barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligini ta‘minlaydi.

Fransiyada huquqiy islohotlar jarayonida Davlat kengashi (Conseil d’État) ham muhim ilmiy-ekspert organ sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu organ nafaqat ma‘muriy sud vazifasini bajaradi, balki qonun loyihalarini ilmiy-huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi. Bundan tashqari, Fransiyada Milliy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

<sup>2</sup> OECD. Regulatory Policy Outlook. Paris: OECD Publishing, 2021.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

huquqiy tadqiqot markazlari, universitetlar va davlat tadqiqot institutlari tomonidan tayyorlangan ilmiy xulosalar qonunchilik tashabbuslari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yaponiya tajribasida huquqiy islohotlar bosqichma-bosqich, chuqur ilmiy tahlil asosida amalga oshiriladi<sup>3</sup>. Masalan, 1990–2000-yillarda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida maxsus ilmiy komissiyalar tashkil etilgan. Ushbu komissiyalar tarkibiga professorlar, sudyalalar, advokatlar va davlat xizmatchilari kiritilgan bo‘lib, ular tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida sud tizimi, advokatura va huquqiy ta’lim tizimi tubdan isloh qilingan. Natijada sud tizimining ochiqligi, tezkorligi va samaradorligi oshgan.

Janubiy Koreya ham huquqiy islohotlarni ilmiy tadqiqotlar asosida amalga oshirish borasida muvaffaqiyatli tajribaga ega. Bu mamlakatda Qonunchilik tadqiqot instituti (Korean Legislation Research Institute) faoliyat yuritib, barcha muhim qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazadi. Institut parlament, vazirliklar va sud organlari bilan hamkorlikda ishlaydi hamda har bir qonunchilik tashabbusi uchun ilmiy tahliliy xulosalar tayyorlaydi. Ushbu tizim qonunlarning sifatini oshirish va ularni amaliyotga tezroq joriy etishga xizmat qiladi.

Skandinaviya davlatlari, xususan, Shvetsiya va Norvegiyada huquqiy islohotlar jarayonida ilmiy komissiyalar muhim o‘rin tutadi. Bu mamlakatlarda har bir yirik qonun loyihasi maxsus ilmiy komissiyalar tomonidan tayyorlanadi. Komissiyalar tarkibiga professorlar, sudyalalar, advokatlar, davlat organlari vakillari va mustaqil ekspertlar kiritiladi. Komissiyalar tomonidan tayyorlangan ilmiy hisobotlar ochiq muhokamaga qo‘yiladi, jamoatchilik fikri o‘rganiladi va shundan so‘ng qonun loyihasi parlamentga kiritiladi. Bu tizim qonunchilikning ochiqligi va demokratikligini ta’minlaydi.

Xalqaro tashkilotlar ham huquqiy islohotlarda akademik tadqiqotlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratadi. Masalan, Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, BMT hamda Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy islohot dasturlarida ilmiy tahlillar asosiy o‘rin tutadi. Ushbu tashkilotlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlar, tavsiyalar va standartlar milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi turli davlatlarning konstitutsiyaviy islohotlarini ilmiy-huquqiy ekspertizadan o‘tkazib, amaliy tavsiyalar beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, akademik tadqiqotlar samaradorligini oshirish uchun bir necha asosiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va davlat organlari o‘rtasida doimiy hamkorlik tizimini yaratish zarur. Ikkinchidan, har bir qonun loyihasini majburiy ilmiy ekspertizadan o‘tkazish amaliyoti joriy etilishi kerak. Uchinchidan, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish uchun maxsus institutlar yoki komissiyalar faoliyat yuritishi lozim. To‘rtinchidan, huquqiy islohotlar jarayonida jamoatchilik fikrini o‘rganish va ochiq muhokama mexanizmlarini kengaytirish zarur.

Shu bilan birga, akademik tadqiqotlar samaradorligini oshirishda huquqiy ta’lim tizimini rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda huquqshunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi, grantlar ajratiladi, xalqaro hamkorlik dasturlari qo‘llab-quvvatlanadi. Bu esa huquqshunos olimlarning mustaqil ilmiy izlanishlar olib borishiga, yangi g‘oyalalar va takliflar ishlab chiqishiga imkon yaratadi. Umuman olganda, xalqaro tajriba huquqiy islohotlarda akademik tadqiqotlarning roli beqiyos ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy asoslangan qonunchilik tashabbuslari huquqiy tizimning barqarorligi, adolatligi va samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois, har bir davlat o‘z huquqiy islohotlarini ilmiy tahlil, statistik ma’lumotlar va xalqaro tajriba asosida olib borishi, akademik muassasalar bilan hamkorlikni kuchaytirishi zarur. Bu esa huquqiy davlat barpo etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda jamiyat taraqqiyotiga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023-yilgi tahrir. – <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – <https://lex.uz/docs/3107042>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-sonli Farmoni

<sup>3</sup> RAND Corporation. Justice, Infrastructure, and Environment Reports. Santa Monica, turli yillar.

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”. – <https://lex.uz/docs/4149765>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF–6013-sonli Farmoni

6. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. New York, 1948. – <https://www.un.org>

7. United Nations. International Covenant on Civil and Political Rights. New York, 1966. – <https://www.ohchr.org>

7. World Bank. World Development Report: Governance and the Law. Washington, 2017. – <https://www.worldbank.org>

8. OECD. Regulatory Policy Outlook. Paris: OECD Publishing, 2021. – <https://www.oecd.org>

9. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Annual Report. Strasbourg. – <https://www.venice.coe.int>

10. Korean Legislation Research Institute. Annual Report on Legislative Studies. Seoul. – <https://www.klri.re.kr>

11. UK Law Commission. Annual Report and Research Papers. London. – <https://www.lawcom.gov.uk>